

HAMYONBOP YASHIL TEXNOLOGIYALAR VA AMALIYOTLARNI ISHLAB CHIQARISH VA QO'LLANISH UCHUN MA'LUMOTNOMA

«MAHALIY HAMJAMIATLAR DARAJASIDA ARZON YASHIL TEXNOLOGIYALARNI TARQATISH ORQALI AYLANMA IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHGA VA EKOLOGIK XAVFSIZ VA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR VA AMALIYOTLARNI QO'LLASHGA HISSA QO'SHISH»



Qishloq xo'jaligi sektoriga iqlim o'zgarishiga moslashishga yordam beradigan texnologiyalar va amaliyotlar dunyoning turli burchaklarida mavjud yoki allaqachon ishlab chiqilgan. Ular orasiga suv resurslarni muhofaza qilish va barqaror ishlatish, energiy tejash, sug'orishning samarali usullari, tuproq va yaylovlarni barqaror ishlatish, qishloq xo'jaligi ekinlar va o'simliklarni tanlab olish kiradi. Ushbu choralarining ba'zilari muayyan investitsiyalarni talab qilishi mumkin, boshqalari esa, asosan, yangi amaliyotlar bilan ishlash uchun xabardorlik va salohiyatni oshirishni talab qiladi.

Shu bilan birga, yashil texnologiyalarni joriy etish katta moliyaviy xarajatlar va bir necha oylik og'ir mehnat bilan bog'liq bo'lmasligi va maqbul suv ta'minoti, suv, yer va energetika resurslarini saqlab qolish, o'z kuchingiz bilan amalga oshirilishi, iqlimi barqarorlikni ta'minlashga, shuningdek, uglerod izini kamaytirishga yordam berishi kerakligini anglash muhim ahamiyatga ega.

Ushbu qo'llanmaning maqsadi mahalliy hamjamiatlar, fermerlar, uy xo'jaliklari, kichik biznes sub'ektlarining barqaror suv va energiya ta'minoti va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun hamyonbop yashil texnologiyalarni qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishdan iborat.

Mundarija:

Eng oddiy sug'orish tizimlari.....	1
Gidravlik taran.....	7
Quyosh pechlari.....	13
Quyosh suv isitgichlari.....	19
Suvni tozalash va tuzsizlantirishning eng oddiy usullari	22
Parabolik quyosh pechi.....	29

ENG SODDA SUG'ORISH TIZIMLARI

Yog'ingarchilikning muntazam bo'lmasligi va kam bo'lishi sababli yomg'ir suvini yig'ish yaxshi usul hisoblanmaydi. Bugungi kunda ko'pchilik tomchilab sug'orish tizimini tanlaydi. Bu usul suv rejimi nuqtai nazaridan oddiy ekinlar uchun ham, juda injiq ekinlarni sug'orish uchun ham mos keladi. Biroq, mukammal tomchilatib sug'orish moslamasini yaratish uchun siz fitting (detal), maxsus jo'mrak va boshqa jihozlarni sotib olishga katta mablag' sarflashingiz kerak bo'ladi.

Shu bilan birga, sug'orish muammosini yanada tejamkor hal qilish uchun siz oddiy plastik va loy idishlardan foydalanishingiz mumkin.

Plastik butilkalardan foydalanish

Afzalliklari


- qimmat turadigan asbob-uskunalarni sotib olishga pul sarflamaslik;
- bunday tizim yordamida faqat alohida jo'yaklarni emas, balki butun dalani sug'orishni ta'minlash mumkin;
- tuproq yetarli chuqurlikda namlanadi;
- o'simliklar isigan suvni qabul qiladi;
- shishalarni ochiq joylarda ham, issiqxonalarda ham ishlatish mumkin;
- tuproq tarkibida o'zgarish sodir bo'lmaydi;
- suyuq qo'shimcha ozuqa qo'shish imkonining mavjudligi;
- suvning doimiy kirib turishi o'simliklarning "och qolishiga" imkon bermaydi;
- poliz o'simliklari, bog' o'simliklari, buta va daraxtlarni sug'orish imkonini beradi.

Plastik butilkalarni sug'orish uchun ishlatishning ko'plab usullari orasida yig'iilishi hamda qo'llanishi juda oddiy va oson bo'lgan uchta usul mavjud:

1. Plastik butilkalardan tayyorlangan osma sug'orish tizimi.
2. Butilkalarni yerga ko'mmasdan turib sug'orish.
3. Tuproqqa ko'milgan butilkalardan tomchilatib sug'orish.

Plastik butilkalardan tayyorlangan osma sug'orish tizimi

Jo'yakning har ikki chetidan rogatka shaklida ushlagichlarni o'rnatib, ularga sinchi qo'yiladi (1-rasm). Tayanch balandligi shunday bo'lishi kerakki, butilkaning pastki qirrasi to'g'ridan-to'g'ri yerdan yuqorida joylashib, suv o'simlikning yashil qismiga tushmasligi lozim. Bunday holda, teshiklar idishning ostida yoki buralgan tiqinda qilinishi mumkin. Plastik idishlar to'g'ridan-to'g'ri o'simliklarning yoniga qo'yiladi, ular ildizlarga suv berishlari kerak –



qurilmani joylashtirishda bunga e'tibor qaratish kerak. 1 – rasm. To'simdaga shisha

Bu usul o'simliklarga qo'shimcha ozuqa berish uchun ham qulay, faqat o'g'itlar suyuqlik shaklida ishlatilishi lozim.

Butilkani to'g'ridan-to'g'ri daraxtga osib qo'yish yoki qoziqqa bog'lash mumkin (2-rasm). Shishalarning pastki qismini kesib olib, tiqinda sug'orish teshiklari teshiladi (tiqinni butunligicha qoldirib, suv biroz oqishi uchun uni ozgina burab qo'yish mumkin). Shishalarni teskarai osib qo'yib, ularga suv quyiladi. Rezervuarlarni teskarai osib qo'yish mumkin. Ammo keyin qopqoqda emas, balki pastki qismida teshiklar qilish kerak. Suv tomadigan idish ostidagi tuproqni kichik

plyonka to'shab yopib, unga tuproq sepish mumkin. Bu tomchilar plyonkaga tushishi, undan yerga oqishi va uni yuvib ketmasligi uchun kerak.

Ushbu sug'orish usuli uchun ma'lum bir vaqt birligi uchun tuproqqa tushadigan suv tomchilari sonini hisoblash kerak bo'ladi. Sug'orish sifati bevosita ushbu parametrga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun, boshidan, kelgusida ularni kengaytirish imkonи bo'lgan kichik diametrli teshiklar teshish kerak¹.

Nozik ildizli injiq o'simliklar uchun tizimni ingichka kapillyar qurilma yordamida yo'naltirilgan sug'orish orqali yaxshilash mumkin (3-rasm). Bizga sharikli ruchkaning sterjeni kerak bo'ladi. Yozish elementini va pastaning qoldiqlarini olib tashlash kerak (siz bo'yoqni spirt, benzin yoki eritgich bilan ketkazishingiz mumkin). Hosil bo'lgan plastik naychaning bir uchi tishkavlagich bilan tiqilishi kerak.

Ikkinci uchi butilka teshigiga kiritiladi. Naychan ni plastik idish bilan ulanish joyini izolyatsiya qilish

zarur. Buni izolyatsiya lentasi, plastilin yoki boshqa yordamchi vositalar yordamida osongina amalga oshirish mumkin. Naychaning bo'sh uchi

bir necha joylarda teshilishi lozim. Ko'p teshik qilishning hojati yo'q. Injiq ekinlarning ko'pchiligi uchun bir daqiqada bir tomchi yetarli. Butilkaning pastki qismi ham qisman kesib tashlanadi. Butilkani o'simlikning yoniga teskari qo'yib, uni mustahkam tayoqchaqa mahkamlash mumkin. Bunday tomchilatib sug'orish o'zining afzalliklariga ega – plastik idishni o'simlikdan yetarlicha uzoqda o'rnatish mumkin.

Butilkalarni yerga ko'mmasdan turib sug'orish

Plastik butilkani suv bilan to'ldirib, shishaning yuqori qismiga qadar bir oz bo'sh joy qoldiriladi.

Qopqoq o'rniغا baklajkaning bo'yniga mos o'lchamdagи porolon bo'lagini qo'yib idishni iloji boricha ildiz tizimiga yaqinroq joylashtiramiz (4-rasm).

Bunday suvli butilkalarni har bir ekin ostidagi maydon bo'ylab terib qo'ying. Butilkalar to'liq bo'shab bo'lganda, ularni suv bilan to'ldirish kerak.



2-rasm. Osma sug'orish tizimi



3 – rasm. Kapillyar qurilma yordamida sug'orish

¹ <https://plodovie.ru/uhod/poliv/ogoroda-s-pomoshhyu-plastikovyh-butyllok-10738/>

Tuproqqa ko'milgan butilkalardan tomchilatib sug'orish

Hajmi 1,5 dan 3,0 litrgacha bo'lgan plastik butilkalarning qopqog'ini mahkam burab, uning ichida yoki bo'yniga bir nechta teshiklar ochiladi: uni mix bilan teshish yoki qizigan bigiz bilan teshish mumkin. Bunda, tuproqning tarkibi va tuzilishini hisobga olish kerak: agar u yumshoq bo'lsa, suv tezroq so'rildi. Misol uchun, qumli tuproqni sug'orishda 2 teshik yetarli bo'ladi, qumoq tuproqli yerlar uchun esa 4 ta teshik kerak bo'ladi.

Butilkaning ostki qismini, lekin to'liq emas (taxminan 2/3 ga) – qopqoq hosil qilish uchun (bu suvgaga tuproq tushishdan va quyoshda bug'lanishdan saqlaydi) kesib oling. Xohishga ko'ra, pastki qismini butunlay kesib tashlash mumkin.

Ko'chatning, masalan, pomidorning yonida (uni ekishdan keyin darhol qilish ma'quldir), tuproqqa taxminan 10-15 santimetr chuqurlik qazib unga butilkani og'zini pastga qaratib o'rnatamiz. Idish bo'yniga doka yoki eski kolgotkalardan yasalgan qoplamlarni qo'yishni unutmaslik lozim. Bu tomchilatib sug'orish teshiklari tuproq bilan tiqilib qolmasligini ta'minlash uchun kerak. Xuddi shu

4-rasm. Yerga ko'mmasdan turib sug'orish maqsadda, butilka ostida va uning atrofida quruq o'tlarni qo'yish tavsiya etiladi.

Ba'zi amaliyotchilar shishani taxminan 45 daraja burchak ostida joylashtirishni tavsiya qiladilar.

Suv to'ldirib, ost-qopqog'i bilan yoping. Zarur bo'lganda suv quyib to'ldirib turing. Bu sug'orish butalar ildizlarini namlash uchun mukammaldir.

Baklajkalarni pastki qismini ko'mishingiz mumkin. Bu usul bir o'simlikni tomchilatib sug'orish uchun ham, yonida o'sadigan bir nechta o'simlik uchun ham qo'llanilishi mumkin. Shishalarda, tubidan bir necha santimetr orqada, suv uchun bigiz yordamida teshiklar teshamiz. Agar u o'simliklar guruhi yaqinida va faqat bitta buta o'sadigan kichik butilkaning yon tomonida o'rnatilgan bo'lsa, ularni katta butilkaning butun diametri bo'ylab teshish kerak. Ularning soni tuproq turiga va ekin xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Ko'pchilikning tajribasidan shuni aytish mumkinki, 10-12 ta teshik yetarli bo'ladi. Qurilmani ular sirtdan 10-15 sm (burchak ostida bo'lishi ham mumkin) balandlikda qolishlari uchun o'simliklar orasiga bo'ynini yuqoriga qilib o'rnatamiz. Teshiklarning tuproq bilan tiqilib qolishiga yo'l qo'yimaslik uchun, butilkani yerga qo'yishdan oldin, uni yupqa kapron qatlami bilan o'rab olish yoki teshiklarni quruq o't bilan yopish kerak. Shishalarga suv quyladi, havo chiqishi uchun qopqoqda teshik ochiladi va namlik bug'lanishini to'xtatish uchun shisha yopiladi. Ushbu usulning afzalligi suvning minimal darajada bug'lanishi, kuchli shamolda idishning ag'darlishining imkoniy yo'qligidir.

Ba'zi miroshkorlar teshik qilishni emas, balki idish tagiga mix qoqib qo'yishni va uni mix bilan birga ko'mishni tavsiya qiladilar². Tomchilatib sug'orish uchun yaxshi qurilma hosil bo'ldi.



² <https://youtu.be/EY4vqZcjg5c>

Eslatma

Shubhasiz, kichik joylarda plastik butilkalardan sug'orishdan foydalanish maqsadga muvofiq. Texnik va kuchli hidli suyuqliklarning plastik idishlaridan foydalanishdan saqlanish lozim: hid o'simliklar tomonidan so'riliishi mumkin, toksinlik esa salomatlikka zarar qilmay qo'ymaydi.

Sug'orish uchun suv sho'r bo'lmasligi (tuz miqdori 2,5 g/l dan ortiq bo'lsa, suv yaroqsiz deb hisoblanadi, ammo pastroq ko'rsatgichlarda ham, 2 g/l dan, tuproqni himoya qilish uchun qo'shimcha choralar ko'rish kerak bo'ladi), og'ir metallar va zaharli moddalar bilan ifloslanmagan bo'lishi kerak.

Vodoprovod suvi yuqori darajada minerallashgan bo'lishi mumkin. Ko'pincha buloq manbalaridagi suv ham juda minerallashgan bo'ladi.

Plastik idishlar sho'r yoki hatto iflos suv bilan sug'orish uchun ham ishlatalishi mumkin. Bu, masalan, Orolbo'y mintaqasi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

KondensKompressorda tuz, nitratlar va boshqa ifoslantiruvchi moddalardan xoli suv hosil bo'ladi. Bunday sug'orish tizimi hatto uzoq muddatli qurg'oqchilik paytida cho'l hududlarida ham ish berishi mumkin. Bunday tizim muntazam sug'orishga muhtoj bo'lgan o'simliklarni sug'orish va yetishtirishda katta miqdordagi suvni tejaydi. Quyosh energiyasi bilan sug'orish boshqa an'anaviy sug'orish tizimlariga nisbatan suvga bo'lgan talabni 10 baravar³ kamaytirishi mumkin deb hisoblanadi.

Ishlash tartibi

Quyosh nurlari idishlarni isitadi va kichikroq shishadan bug'langan suv 5 litrli shishaning devorlariga to'plana boshlaydi. Keyin u tuproqqa oqadi va o'simliklarning ildizlarini oziqlantiradi.

Qilinishi kerak bo'lgan ish – jo'yakni begona o'tlardan tozalash va o'z vaqtida suv quyish.

Tayyorlanishi

Sug'orish qurilmasi ikkita plastik butilkadan tayyorlanadi: biri 2 litrli, ikkinchisi 5 litrli. Kichikroq butilkaning yuqori qismi va katta butilkaning pastki qismi kesib tashlanadi. Kichik butilkanani yerga joylashtirilib kattasi bilan yopamiz (5 va 6-rasmlar). Kichikroq idishda doimo suv borligini kuzatib borish kerak. Agar siz plastik ifloslanishdan xavotirda bo'lsangiz, xuddi shu qurilmani shisha butilkalardan qilishingiz mumkin. Biroq, ularni kesish biroz qiyinroq bo'ladi.



5 –rasm. Tayyorlanishi



6–rasm. O'rnatilishi

³ <https://ecology.md/ru/page/kondenskompressor-tehnika-solnechnogo-kapelnogo-oroshenija>

Sopol idishlar bilan sug'orish texnologiyasi

Sopol idishlar ham dalani boshqa sug'orish tizimlariga qaraganda yomon sug'ormaydi.

Sopol tuvakning mikrog'ovaklari suvning tuproqqa sizib o'tishiga imkon beradi. O'ziga xos xususiyati shundaki, suvning sizib kirishi yaqin atrofdagi o'simlikning suvga bo'lgan ehtiyoji bilan tartibga solinadi. Yaqin atrofdagi o'simlik "chanqog'ini qondirib" bo'lgandan so'ng tuproq ho'l bo'lganda suvning sizib kirishi to'xtaydi. Tuproq quriganida, suv yana sizib o'ta boshlaydi. Suvning sizib kirishi tuproq kapillyarlaridagi namlik bosimi bilan boshqariladi. Bu taymerlar va elektron sensorlarsiz avtomatik tomchilatib sug'orishdir.

Ko'zalarni 7-rasmda (agar og'zi keng bo'lsa, tez bug'lanishning oldini olish uchun uni mahkamlash tavsiya etiladi) ko'rsatilganidek olish mumkin yoki 2 ta sirlanmagan tuvakni yopishtirishingiz mumkin. Tuvaklarni yopishtirish va ulardag'i teshiklarni berkitishni suv o'tkazmaydigan yelim bilan amalga oshiramiz, suv oqib ketmasligi uchun yopishtirilgan joylarni ehtiyyotkorlik bilan silikonli germetik bilan yopamiz mumkin (8-rasm). Ushbu qurilmaning yuqori qismini oq bo'yox bilan bo'yash maqsadga muvofiqdir. Tuvakdagi teshikdan suv quyiladi (9-rasm).



7 –rasm.




11-rasm.Tuvaklarni birlashitirish

Tuvak ham ochiq yerga, ham o'simliklar o'sadigan kadkalar yoki konteynerlarga ko'milishi mumkin. Bu namlikni to'g'ridan-to'g'ri o'simlikning ildizlariga yetkazish imkonini beradi. Bir tomchi suv ham behuda ketmaydi. Ushbu usul quruq joylar uchun ajoyib yechimdir.



9 –rasm. Ustki sopol idish(tuvak)



10-rasm. Sopol idishlarni o'rnatish

Qo'llanilishi

Ushbu sopol tuvakni jo'yakka (10-rasm) yoki kadkaga (o'stirish uchun konteyner) ko'mib qo'ying, shunda suv quyish uchun teshikli ko'zaning ustki qismi tuproq yuzasiga chiqib qoladi. Tuvakni suv bilan to'ldiring. Suv katta miqdorda bug'lanmasligi uchun idish bo'ynini yopish mumkin.

O'simliklar tuvakka yaqin yoki undan maksimal bir bosh barmoq masofa oralig'ida ekiladi. Bu, ayniqsa, yangi ekilgan o'simliklarga tegishli. Rivojlangan ildiz tizimiga ega bo'lган o'simliklarni ko'zadan 20-30 sm masofa oralig'ida ekish mumkin. O'simlik ildizlari instinkтив ravishda namlik manbasiga cho'zilib borib, vaqt o'tishi bilan ko'zaning tashqi tomoniga yopishadi va o'ziga kerakli miqdorda suv iste'mol qiladi. Siz qilishingiz lozim bo'lган yagona narsa ko'zalarni muntazam ravishda suv bilan to'ldirishdir.

Eslatma

Suv sizlanishning asosiy belgilari (so'lish, sarg'ayish va boshqalar) paydo bo'lmasligi uchun o'simliklarni kuzatishni unutmang.

Namlik tuproqda yaxshi saqlanishi uchun jo'yaklarni mulchalash tavsiya etiladi.

Ko'zalarni tuproq va ildizlardan 1:10 nisbatda suv bilan aralashtirilgan sirkal eritmasi yoki kal sinasiyalangan soda va sirkal bilan tozalashingiz mumkin.

Ilova

Sabzavot o'simliklarini namlikka bo'lgan talab bo'yicha ajratish

1. Tuproqdan suv olish qobiliyati yuqori bo'lмаган, bug'ланish uchun juda ko'p namlikni iste'mol qiladigan eng talabchanlari – barcha ekinlarning ko'chatlari, salat, ismaloq, redis, turp, karam, baqlajon va karamdoshlar oilasining ildizmevalari. Ularni kamida 4-5 kunda, biroq kichik hajmlarda (albatta, yomg'ir bo'lмаганда) bir marta sug'orish tavsiya etiladi⁴.

2. Yuqori talabchan va tuproqdan suv olish xususiyatining pastligi, qurg'oqchilikka yomon chidamliligi bilan ajralib turuvchilar: bodring, pomidor, baqlajon, qalampir, piyozi, sarimsoq. Eng maqbul sug'orish – nisbatan kichik hajmda har 6-7 kunda bir marta.

3. Namlik bilan ta'minlashni kamroq talab qiladigan, ildiz oziqlanishi uchun tuproqning sezilarli miqdoridan foydalanuvchi, bug'ланish uchun namlikni nisbatan tejamkor sarf qiluvchilar – sabzi, petrushka, lavlagi, kartoshka, qovoqcha, loviya, yerqalampir). Katta hajmdagi suv bilan 10-15 kundan keyin sug'orish.

4. Noqulay suv sharoitlariga eng chidamlı, issiqlik va havo qurg'oqchiligiga chidamlı – tarvuz, qovun, qovoq, sabzavotli makkajo'xori hisoblanadi. Ularni sug'orish har 15-18 kunda bir marta.

Namlikka bo'lган ehtiyoj yil fasliga va boshqa sharoitlarga bog'liq. Shunday qilib, uzoq muddatli qurg'oqchilik hosilning kam yoki hatto to'liq bo'lmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Ammo uzoq muddatli qurg'oqchilikdan keyin kuchli yomg'ir pomidor va ildizmevalarning yorilishiga olib keladi.

Ertapishar navlar kechpishar navlarga qaraganda ko'proq suvga ehtiyoj sezadi, bu nafaqat ularning tez o'sishi va rivojlanishi bilan, balki maydon birligidagi turish zichligi bilan ham izohlanadi.

O'sish mavsumining turli davrlarida sabzavot ekinlarining suvga bo'lган ehtiyoji ham bir xil emas. Urug'larning unib chiqishi uchun yuqori namlik kerak.

Karam boshining o'sishi davrida eng ko'p suvga ehtiyoj sezadi. Selderey va Sho'radoshlar oilasiga mansub ildizmevali ekinlar, odatda, o'simlik vegetatsiyasining birinchi yarmida, ular hali kuchli, chuqur kirib boradigan ildiz tizimini shakllantirmagan paytda namlikka muhtoj bo'ladi; mevali sabzavotlar – meva berish paytida; piyozdoshlar – barglarining o'sish davrida.

Shuni yodda tutish kerakki, tuproqda ham namlik mavjud, lekin o'simliklar har doim ham uni qabul qilolmaydi. Ba'zida bitta tuproqni yumshatish ikkita sug'orishni o'rnini bosishi mumkin!

⁴ Albatta, sug'orish chastotasi yomg'ir bo'lмаганда ko'rsatilgan

GIDRAVLIK TARAN


Suvni bir necha o'n metr yuqoriga ko'tarib beradigan gidrotaran tobora ommalashib bormoqda. Gidravlik taran dvigatelsiz, harakatlanayotgan suv oqimi ustuning gidravlik zarbi hisobiga ishlaudi qishloq xo'jaligida, kichikroq qishloqlarni ichimlik suvi bilsn ta'minlashda, energetikada, nasos stantsiyalarida va boshqalarda qo'llaniladi.

Gidotaranning konstruktsiyasi va harakat pritsipi.

Gidotaran quyidagicha ishlaydi (11-rasm). Zadvijka 2 ochilishi bilan, suv manbasidan 2 suv H_1 bosim bilan gidravkil zarb quvuriga 3 o'tadi.



<http://www.cigmaproducts.com> saytidan olingan rasm



11-rasm. Gidotaranning umumiy konstruktsiyasi: suv manbasi-1; задвижка-2; gidravlik zarb quvuri-3; zarb klapani-4; haydash klapani-5; suv-havo qalpogi; havo-7; suv-8; nasos hovuzi-9; haydash quvuri-10; suv qabul qilish inshooti-iste'molchi-11.

Suvning ortib boruvchi dinamik bosimi ostida, quvurning pastgi qismida joylashgan ochiq zerb klapani 4 yopiladi, harakatlanayotgan suvning inertsiyasi va siqilisl ta'sirida, gidravlik zerb quvuridagi 3 bosim birdan ko'tariladi. Ortib borayotgan bosim, haydash klapanini 5 ochadi va u orqali suv, suv-havo qalpog'iga 6 o'tib uning ichidagi havoni siqadi. Keyin gidravlik zerbning musbat to'lqini manfiyga almashadi, gidravlik zerb quvuridagi 3 bosim tushib ketadi, haydash klapani 5 yopiladi, suv-havo qalpog'iga kirgan suv, undagi havo bilan siqilib, suvni haydash quvuri 10 orqali yuqoriga, iste'molchiga 11 haydaydi, zerb klapani 4 esa ochiladi, va shu tariqa tsikl davom etadi.

Uzun quvurdaga 3 harakatlanayotgan katta miqdoradgi suv ustuning, yopilq turgan zerb klapaniga 4 birdan kelib urilish hodisasi, *gidravlik zerb* deyiladi. Gidravlik zerbda, gidravlik zerb quvuridagi bosim, ishchi bosimiga H_1 30-40 barobar oshadi va suv suv-havo qalpog'iga 6 haydaladi.

Gidravlik zerb quvuri 3, niabatan ko'p uzunlikka ega.

Quvurning uzunligi, suvning tushish balandligidan 6-8 marta ko'p bo'lishi, quvur bilan er sathi orasidagi burchak 7-9° tashkil qilishi kerak. Suv olinadign manba bilan zarb klapani orasidagi balandlik farqi, 0,5 m dan kam bo'lmasligi kerak (gidrotaranning sarfi va bosim balandligi ushbu farqqa to'g'irdan-to'g'ri bog'kiqdir).

Gidrotaranning afzalliklari

- konstruktsiyasining soddaligi va detallarining kamligi, uning ishonchliligini va qurilmani uzoq ishlashini ta'minlaydi. Gidotaran to'xtamasdan ta'mirsiz 10 yil ishlashi mumkin;
- gidotaranni ishlashi uchun juda kichik sathlar farqi ham etarlidir, kam suv sarfi uchun o'n santimetр-shu atrofdagi balandliklar etarlidir;
- bor materiallardan foydalanib gidotaranni mustaqil ravishda yasash mumkinligi;
- qurilma mustaqil rejimda ishlaydi, tashqaridan hech qanday energiya manbasini jalgilmaydi;
- qurilma kunning har qdnday vaqtida to'tovsiz ishlaydi, doimiy nazorat qilib turishni talab qilmaydi;
- o'rnatilib ishga tushurilgandan sung, u manbadagi suv qurib qolguncha va qismlsri mexanik emirilib tugamaguncha ishlayveradi.

Kamchiliklari

- gidotaranni ish jarayonini tartibga solishning imkoni yo'q, uni ishgs tushirish yoki to'xtatish mumkin, uning uzatayotgan suv sarfi miqdorinu o'zgartirishning iloji yo'q;
- suvning katta - hajmi ko'tarib berilayotgan suvning hajmidan bir necha barobar ko'p miqdori, haydash quvurining to'kishi orqali isrof bo'ladi;
- при использовании «Klassik» suv-havo qalpog'idan 6 foydalanganda, havo sekin-asta haydalayotgan suvda erib kamayib ketadl, shuning uchun uni vaqt-vaqt bilan havoga to'dirib turish kerak;
- gidotaranning o'lchamlari kichik emas, odatda haydash quvurining optimal uzunligi, 10 metrdan 14 metrgacha va undan ham ko'proq bo'lishi mumkin;
- gidravlik zarbning davom etishi ham, haydash klapani ochilib keraklicha suvni o'tkazishi uchun etarli vaqt bo'lishi kerak;
- qish davrida gidotaran ishlamaydi, u muzlab qolib muzlarning kengayishi natijasida yorilib ketadi, shuning ucun u fasliy ishlaydi yoki uni qishda ishlashi uchun issiq xonaga joylashtirish lozim;

Gidrotaranlar ommaviy ishlab chiqarilmaydi va ishlab chiqarilgan modellar esa juda qimmat. Sunday ekan, mustaqil o'z kuchi bilan gidotaranlar yasash, juda muhimdir.

Gidotaranlarni o'z kuchi bilan metalldan va sintetik material-polivinilxloriddan (PVX) tayyorlash mumkin.Har xil materiallardan tayyorlangan gidotaranlarni asosiy komponentlari va ishslash printsipi bir xildir. Biroq ular suv sarfi va suv ko'tarish bslsndligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Metall gi dotaran qurilmasi. Katta hajmdagi suyuqliklarni baland sathlarga ko'tarish zarus bo'lganda foydalaniladi. Metall gidotaranning detallari, sanoat stanoklarida tayyorlanadi. Agar kimda stanoklarda ishlashga ruxsati va tajribasi bo'lsa, unda quyida keltirilgan injenerlik chizmalariga asosan gidotaranni tayyorlash unchalik murakkab emas (*1-ilovada O/T65/5-150 gidotaranini tayyorlash chizmalarini keltirilgan*).

PVXdan tayyorlanadigan gidotaran qurilmasi. Konstrktsiyani o'z qo'li bilan tayyorlash juda arzonga tushadi (1-jadval) va juda oson. Konstrktsiyani hamma erda bor materiallardan tayyorlash mumkin.

1-jadval

Har xil materiallardan tayyorlangan gidrotaranlarning texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlari


MATERIALI	NARXI,AQSH dollarida	QOPLASH MUDDATI, oy	ISHLASH MUDDATI, yil	TAYYORLAS H DAVRI, kun	SUV SARFI, m ³ /soat	SUV KO'TARISH BALANDLIGI,m
Metall	375-3875	6	20-30	10	65,0	до 150
PVX	≤ 100	1	5-8	3	0,42	до 50

Yasalishi

Gidravlik taranni ichimlik suvi tarmoqlarida qo'llaniladigan tayyor qismlardan yig'ib mustaqil ravishda o'zingiz tayyorlashingiz mumkin. Yetishmaydigan qismlar murakkab bo'lмаган tokarlik va payvandlash ishlarini talab qiladi.

Moslamaning asosiy qismi (12-rasm) [3], diametri 3,8-5,1 sm bo'lgan ichki rezbali po'lat yoki cho'yan uchlik-1 hisoblanadi (undan ham yaxshirog'i-birlashtiruvchi to'rtlik hisoblanadi, faqatgina uning pastgi-to'rtinchi teshigi rezbali tiqin bilan bekitiladi). Uchlikka o'tish nippeli-ikkita quvurni bir-biriga germetik ulovchi, ikki tomoni uzun rezbali (sgon) quvur-2 burab kiritiladi. Sgonlarning biriga diametri 50 mm dan kam bo'lмаган va uzunligi 20 metrdan ko'p bo'lмаган olib keluvchi quvur ulanadi. Ikkinchisiga, taran o'rnatilganda uning chetki qismi erkin turishi uchun burchak-3 ulanadi: unga zarb klapani o'rnatiladi. Uchinchisiga haydash klapani bilan bosim qalpog'i o'rnatiladi.

Barcha rezbali ulanmalar yig'ishdan oldin metall shyotka bilan iflosliklar hamda zangdan tozalanadi va jgut bilan o'raladi. Bosim qalpog'i-4, diametri 15-20 santimetrlı metall yoki plastmassa quvur bo'laklaridan tayyorlanadi. Uning hajmi taxminan, olib keluvchi quvurning hajmmiga teng bo'lishi kerak. Quvurning chetlari qopqoq-5 va rezina tiqinli-7,7a (halqa) o'tish flyanetslari-6 bilan bekitiladi. Bosim qalpog'i po'lat shpilkalar-8 bilan tortiladi.



Bosim klapani sifatida, suv nasoslari uchun italiya firmasi «Bugatti» (1 va 1,5 dyumli, tashqi rezbali) va nemis firmasi «Tsenner» (diametri 15 mm dan 40 mm gacha) tomonidan ishlab chiqariladigan teskari klapandan foydalanish mumkin. Ular santexnika jihozlari magazinlarida sotiladi. Klapan-gulbargni (lepestok) bir parcha plita rezinadan qo'lda yasash yoki hojatxona bakining to'kish klapandan foydalanish mumkin. Klapanninig konstruktsiyasi, o'tish flyantsining o'lchamlari va shaklini hamda diametri 1,5 dyumli bosim quvurini-9 o'rni va mahkamlash turini aniqlashda juda muhimdir. Haydash klapani ikki qismdan yig'ilgan: korpus-10a va to'sindan-10b.

Korpus po'lat yoki bronzadan yo'niladi. Uning ustki qismida 15-20 mm li teshiklar ochilgan. Ichki bo'shlig'i 45° burchakli konus bilan tugaydi. Klapanning korpusi, nippelning-1 sgoniga burab mahkamlanadi. Po'lat yoki bronza to'sin, diametri 20-25 mm va og'irligi 100-15 g bo'lgan ikkilangan kesilgan konus shaklga ega.

To'sinning yuqori konusi, korpus bo'shlig'i kabi burchakka ega bo'lishi kerak: faqat shundagina klapan, gidravlik zarb hosil qilish uchun oqimni bir lahzada to'sishi mumkin. To'sinning yuqori qismiga uch dona markazlashtiruvchi spitsalar, korpusning yuqori qismidagi teshiklarga ishqalanmasligi uchun zichlab burab kiritilgan. Pastgi qismiga vint burab kiritilgan. To'sinning massasini o'zgartirish orqali gidravlik taranning ishi tartibga solinadi. Buning uchun pastgi vintga qo'rg'oshin shaybalar kiydiriladi.

Gidravlik taranni ishga tushirish uchun, to'sinni ko'tarib, suvni zarb klapani orqali erkin oqib chiqishiga sharoit yaratib berish kifoya. Bosimni ko'tarilishi, quvur devorlarini yorib yuborishi mumkin, bunga yo'l qo'ymaslik uchun, kranlar va ventillar yordamida suv oqimi sekin to'xtatilishi kerak. Gidrotaranni axlatlardan himoya qilish uchun olib keluvchi quvurning kirish teshigini oddiy filibr bilan, qishda suv kiritmaslik uchun esa to'sin bilan jihozlash lozim. Gidravlik taran korpusi va bosim qalpog'idan suvni tushirib yuborish uchun, pastgi teshik orqali spitsa kiritladi va u bilan bosim klapani ochiladi. Gidravlik taranni bir joyga doimiy yoki ko'chiriladigan qilib o'rnatish mumkin. Faqatgina zerb klapanidan chiqayotgan suvni, olib ketuvchi kanalni o'rnatishni hisobga oolish zarur.

Eslatma

Ekspluatatsiya vaqtida, so'rish quvuriga uzatilayotgan suvni bir qismini to'kib tashlash zarur.

Gidrotaranni polivinilxloriddan yig'ish

Tez yasash mumkinligi, material va detallarni doimo borligi, shuningdek, yasash uchun sodda asboblar kerakligi sababli, ko'p hajmdagi suvgaga ehtiyoji bo'lмаган dala hovli egalari va boshqa suvdan foydalanuvchilar, PVXdan tayyorlash mumkin bo'lgan gidrotaranni afzal ko'rishadi. Quyida, bir kunda 8-10 m³ hajmdagi suvni maksimal 50 m balandlikkacha ko'tarib beradigan PVX tayyorlanadigan gidrotaranning bayoni berilgan [4].

Materiallar va asboblar: PVX uchun praymer; PVX tsementi; rezbali teflon lenta; arra; o'lchash lentasi; qisrirgichlar; pichoq; laboratoriya qo'lqoplari; PVXdan uzun sektsiya; bog' shlangi.

Gidrotaranni yasash uchun quyidagilarni tayyorlash kerak: polipropilenli uchlik-2 dona; burish - 1 dona; adaapterlar – 4 dona; kranlar – 2 dona; mufta – 1 dona; o'tuvchi – 1 dona; teakari klapan–2 dona; shlang–3 м; plastic shisha–1 dona; klipslar–3 dona; yog'och taglik–1 dona; штуцер 1 - dona; polipropilenli quvur – 1,5 m (13a-rasm).




13 – rasm. Gidrotaranning qismlari (a) va asosiy magistral (6).

Kerakli detallar o'lchamlariga mos qilib kesiladi. Yig'ish gidrotaranning asosiy magistralini komplektlashdan boshlanadi (13б-rasm). Qurilmaning asosiy elementi bo'lib, uchlik xizmat qiladi bizning holatimizda u polipropilendandir.

Gidrotaranning chap qismini yig'ish, burishga adapter va teskari klapanni ulashdan boshlanadi (14а-rasm). Sungra burishga, burishni pastgi uchlik bilan ulash trubkasiga ulanadi. Keyin gidrotaranning pastgi qismini, ulash trubkasini pastgi kranga ulaymiz (14б-rasm).



14 – rasm. Adapter vs teakari klapanni ulash (a), zuiddi shuningdek, ulash trubkasini pastgi kranga ulash (б)




15 – rasm. Gidrotaranning ulash trubkasi va boshqa qismlarini montaj qilish

Sungra, biror suv manbasidan (hovuz, ariq, kanal va boshqalar, 15-rasm) suv uzatish uchun, ulash trubkasi montaj qilinadi.

Konstrutsiyani eg'ishni tugatish uchun, endi pastgi uchlikdan ketayotgan vertikal qismni eg'ish kerak. U quyidagicha yig'iladi: pastgi uchlikka keyin boshqa uchlikka ulanadigan adapterli trubka ulanadi. Unga trubka ulanadi va suv-havo qalpog'i montaj qilinadi (bizni holatda plastic shishadan foydalanilgan).

Yig'ishning keying bosqichi, yuqorida joylashgan uchlikka ulash trubkasi, kran va iste'molchiga (15-rasm) olib boruvchi keying trubkadan tashkil topgan taranning qismini ulash hisoblanadi. Barcha konstrutsiya yog'och asosga klipsalar yordamida o'rnatilgan. 16-rasmda gidrotaran qurilmasining sxemasi ko'satilgan.

Yig'ilgan tizim («so'rish – haydash») manbara yoniga o'rnatiladi. Ishga tushirish-sozlash ishlari amalga oshiriladi. Qurilmaning suv sarfi, zarur suv sarfini olish uchun o'rnatilgan kranlar yordamida tartibga solinadi.



16 – rasm. PVXdan tayyorlangan gidrotaran qurilmasining to'liq yig'ilgan sxenasi

QUYOSH PECHLARI

Quyosh pechlarining birinchi navbatdagi vazifasi ovqat pishirish uchun hozirgi kungacha ham eng muhim yoqilg'i bo'lgan o'tinga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishdir. Daraxtlarning o'z ehtiyojlari va sotish uchun nazoratsiz kesilishi ko'payib borayotgani o'rmonlarning yo'q bo'lib ketishi, cho'llarning kengayishi, tuproq eroziysi, yer osti suvlari sathining kamayishiga asosiy sabab bo'lib hisoblanadi va ekologik muvozanatga uzoq muddati salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, quyosh pechlari davlat energetika sohasiga katta hissa qo'shishi dargumon. Biroq, ular kambag'allarning yashash sharoitlarini keskin yaxshilashi, ularga ovqat pishirish uchun yoqilg'i etishmasligini bartaraf etishga yordam berishi mumkin.

Quyosh pechlarining ishlash prinsipi

Quyosh plitalari va pechlar quyosh energiyasini yutadi va uni yopiq sathda to'planadigan va ovqat pishirish idishlariga yo'naltiriladigan issiqlikka aylantiradi. Quyosh energiyasini yig'ish uchun odatda qurilmalarga reflektorlar qo'shiladi. Bunday nur qaytaruvchilar ko'zguli polimer plyonka, alyuminiy folga va boshqalar bo'lishi mumkin. Bu nur qaytargichlar quyosh nurini qora kastryullarning yuzasiga fokuslaydi, qisqa vaqt ichida ko'p miqdordagi quyosh nurini olgani sababli ularga tezroq qizish imkonini beradi. Qora ranglar yorqin ranglarga qaraganda ko'proq yorug'lik to'lqinlarini yutadi. Xuddi shunday, kastryulning qora tashqi yuzasi quyoshdan ko'p miqdorda yorug'likni (shu jumladan infraqizil nurlarni) yutadi. U qiziydi va hosil bo'lgan issiqlikni uning ichidagi mahsulotlarga o'tkazadi. Shu tariqa ovqat pishiriladi. Issiqlik ham devorlardan, ham yuqorigi shisha va devorlar orasidagi tirqishga chiqmasligi uchun quti devorlarining yaxshi issiqlik izolatsiyasi bo'lishi kerak. Issiqlik izolyatsiyasi sifatida odatda isitilganda zararli moddalar ajratmaydigan karton, qog'oz yoki boshqa tabiiy materiallardan foydalaniladi.

Oshxona quyosh plitalarining bir turi **qutisimon quyosh pechlaridir**.

O'zining afzalliklari tufayli qutisimon quyosh pechlari quyosh pechlarining eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Qutining yonlari va tubi issiqlikni saqlashi uchun izolyasiya qilinishi kerak. Izolyatsiya materiali sifatida oyna, sintetik paxta yoki qandaydir tabiiy material (yeryong'oq, kokos yong'og'i, guruch, makkajo'xori va hokazolarning qobig'i) ishlatalish mumkin. Qanday material ishlatalmasin u doim quruq bo'lib turishi kerak. Qutisimon plita odatda boshqa ovqat pishiriladigan quyosh pechlari qurilmalariga nisbatan ko'p sig'imli bo'ladi. Haqiqatdan ham unga siz bir necha qozonni joylashtirishingiz mumkin.

Bunday kartondan tayyorlangan qurilmalarning ishlash muddati ancha uzoq – 10 yilgacha bo'lishi mumkin. Bu kabi pechlarda harorat 150...170 °C ga yetishi mumkin. Kartonning yonib ketishidan tashvishlanmasa ham bo'ladi, chunki buning uchun harorat yetarli emas.

Qutisimon quyosh plitalaridan odatda pishishi uchun uzoq vaqt talab etuvchi mahsulotlarni pishirish uchun foydalaniladi. Ular shuningdek, non yopish uchun ham foydalanimishi mumkin. Quyosh pechlari agar ularga yetarli darajada quyosh nurlari tushib tursa qishda ham ishlashi mumkin. Shunday bo'lsa-da, uning harorati bahor yoki yozdagidek yuqori darajaga yetmaydi. Bu atrof-muhit haroratining past bo'lishi, qishda quyosh nurlarining kuchi yilning issiq vaqtlaridagidek bo'limasligi bilan bog'liq.

Afzalliklari

- Ular nisbatan arzon (boshqa turdag'i quyosh pechlariga qaraganda)
- Foydalanishning arzonligi (yoqilg'i talab etmaydi)
- Ovqat tayyorlashnинш xavfsizligi. Yonib ketish xavfi va ovqatni qaytadan isitish zarurati yo'q! Ovqat kun davomida iliq saqlanadi.
 - Ularni mahalliy materiallardan foydalanib oson tayyorlash va ta'mirlash mumkin. Ishlatish va saqlashning osonligi. Mobiillik.
 - Ham tik tushuvchi, ham tarqoq quyosh nurlaridan foydalanadi.
 - Ularni quyoshga qarab burib turish kerak emas.
 - Ularda bir vaqtning o'zida bir nechta qozonni isitish mumkin.

- Ekologiklik. Atrof-muhitga zarar keltirmaydi.
- Qaynatish, dudlash va non yopish imkoniyati.
- Ovqatni aralashtirib turishni talab etmaydigan, kuyish ehtimolisiz bir tekisda pishirish.
- Kuyish xavfisiz bir xilda pishirish, aralashtirish kerak emas.
- Mahsulotlar hamma foydali moddalarini saqlab qoladi. Quyosh pechida havoning harakatlanishi yuz bermaydi, bu esa ovqatni suvli, yumshoq va xushbo'y saqlanish imkonini beradi. Quyosh pechida tayyorlangan qovurilgan taomlar ancha mazali va suvli, bunday pechda pishirilgan non beqiyos ta'mga ega bo'ladi.
- Quyosh pechlari – kundalik foydalanishda, bor sayri, dala hovli, shahar chekkasidagi uyning hovlisida yoki elektr energiyasi o'chirilgan vaqtida foydalanish uchun benuqson vositadir. Shuningdek ular Sizning uyingizning doim salqin bo'lishini ta'minlaydi, chunki ovqat tayyorlash uchun sarflangan issiqlik ko'chada qoladi.

Kamchiliklari

- O'rtacha harorat tufayli ovqat pishirishga uzoq vaqt ketadi.
- Ular yordamida faqat kunduzgi vaqlarda ovqat tayyorlash mumkin. Quyosh radiatsiyasi miqdori bulutli va yomg'ir yog'ayotgan vaqlarda keskin pasayib ketadi. To'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari yetishmagan sharoitlarda quyosh pechlari faqat tayyor ovqatni iliq holda saqlash uchun yaroqli bo'ladi.
- Bunday pechlar qovurishni «bilmaydi».

Qutili plitaning eng sodda konstruksiyasini tayyorlash

Nima kerak bo'ladi:

- Ikkita karton quti. Ichki quti sifatida 40x40 o'lchamli qutidan foydalaning, lekin quti qancha katta bo'lsa shuncha yaxshi bo'ladi. Tashqi quti ichkisidan kattaroq bo'lishi kerak (qutilar orasida 1,5 sm dan ortiq bo'shliq bo'lishi kerak). Ikkala quti orasidagi masofa albatta butun uzunasiga bir xil bo'lishi shart emas. Karton qutining o'lchamini uni qirqib va yelimlab, oson o'zgartirish mumkin.
- Bitta karton qopqoq tayyorlash uchun. Bu bo'lak quti perimetri bo'ylab tayyor plitaning ustki qismi (tashqi quti) dan taxminan 4-8 sm kattaroq bo'lishi kerak.
- Bitta unchalik katta bo'limgagan alyuminiy folga ruloni.
- Bir banka qora aerozolli bo'yoq («quriganda zaharli emas» yozuvli bo'yoq izlash kerak) yoki tempera bo'yog'ining bitta kichik bankasi. Bo'yoqni qorakuyadan ham kleyster aralashtirb tayyorlash mumkin.
- 250 g dan kam bo'limgagan PVA elimi yoki kleyster.
- Bitta 200 °C haroratga mo'ljallangan kurka hajmidagi toblab pishirish uchun foydalilanidigan paket.

Shuni nazarda tutish kerak-ki, bunday paketlar ultrabinafsha nurlarga chidamsiz bo'ladi va vaqt o'tishi bilan ular juda mo'rt bo'lib qoladi va shaffofligi yo'qoladi va ularni ehtimol vaqt-saqti bilan almashtirib turishga to'g'ri keladi. Paketlar o'rniga oynadan foydalanish mumkin, biroq u ancha qimmat va mo'rt bo'ladi, va shamolli kunlardan tashqari ovqatni yaxshi pishirishni ta'minlay olmaydi. Shuningdek, buning uchun organik oyna ham qo'l kelishi mumkin.

Tashqi qutining ustki qopqog'ini pastga qilib o'rnatiting, uning ustidan ichki qutini joylashtiring va uning atrofidan tashqi qutining yuqorigi qismiga chiziqlar o'tkazing. Ichki qutini olib tashqi qutining yuqorigi qismida teshik hosil qilib chiziqlar bo'ylab qirqib chiqing (17-rasm).

Oldindan sizning pechingizning chuqurligi qancha bo'lishi kerakligini aniqlab oling. U sizning eng katta kastryulingizdan taxminan 2,5 sm chuqurroq, va plita yig'ilgandan keyin qutilarning tublari orasida bo'shliq qolishi uchun tashqi qutidan taxminan 2,5 sm kaltaroq bo'lishi kerak. Ichki qutining burchaklarini ushbu balandlikda qirqing. Har bir tomonini kengaytirilgan tavaqalar hosil qilib pastga joylashtiring (18-rasm). Agar buklanadigan joydan bir uchidan ikkinchi uchigacha chizik chizib chiqilsa buklash osonlashadi. Alyuminiy folgani har ikkala qutining ichki tomoniga, shuningdek, tashqi quti qopqog'ining ichki tomoniga yopishtiring. Yopilgan yuqorigi tavaqalarni tashqi qutiga yelimlab yopishtiring.




17-rasm


Tashqi qutining ichiga ichki qutini tashqi qutidagi teshikka joylashtirganingizda ichki qutining tavaqalari tashqi qutining yuqorigi qismiga tegib turishi uchun bir nechta g'ijimlangan gazeta bo'laklarini joylashtiring (19-rasm).

Ushbu qaytarib qo'yilgan tavaqalarni tashqi qutining yuqorigi qismiga yopishtiring. So'ngra tashqi qutining perimetriga mos kelishi uchun uning ortiqcha qismini qirqib tashlang.


Taglik uchun pechning pastki qismi o'lchamiga teng bo'lgan karton bulagini qirqib oling va uning bir tomoniga folga yopishtiring (20-rasm). Folga yopishtirilgan tomoning qora rangga bo'yab uni quritishga qo'ying. Taglikni pechning ichiga shunday joylashtiring-ki, u ichki qutining tubida (qora tomonini yuqoriga qilib) yotsin, va ovqat pishirayotgan vaqtingizda kastryulni uning ustiga qo'ying.



18-rasm





19-rasm




20-rasm

Olib qo'yiladigan qopqoq uchun katta gofrirovka qilingan karton bo'lagini olib, uni tayyorlangan konstruksiya ustidan qo'ying. Uning konturlarini chizib olib, so'ngra taxminan 7,5 sm li yon devor qoldirib qirqib oling. Yon tomonlarini buklang (21-rasm) va ularni qopqoqning yon tomonlariga yopishtiring. Gofralarni shunday joylashtiring-ki, keyinchalik tirkaklar to'g'ri qo'yilishi uchun pechga qaraganingizda ular chapdan o'ngga yo'nalgan bo'lsin. (22-rasm). Qopqoq qutiga loyiq kelishi uchun belgilari qo'yish vaqtida ruchka yoki qalamni qutining chekkasiga qo'ying (23-rasm).



21-rasm



22-rasm



23-rasm

Nur qaytargichda zaslonka hosil qilish uchun qopqoqda pechning teshigi o'lchamiga mos keladigan to'rtburchak chizing. So'ngra uning uchta tomoni qirqib hosil bo'lgan klapanni yuqoriga ko'taring, natijada nur qaytargich hosil bo'ladi (22-rasm). Uni ichki qismini folga bilan o'rang.

Tirgak yasash uchun 30 sm uzunlikdagi simni ikki uchini eging (22-rasm). Shundan so'ng uni gofraga o'rnatish mumkin. Klapanni ko'tarib, qopqoqqa perimetri bo'ylab toblab pishirishda foydalaniladi-gan paket yopishtiring. Variant sifatida siz pech teshigini yopish uchun anchagina katta yassi varaq hosil bo'lishi uchun, istalgan o'lchamdag'i paket qirqib olishingiz mumkin.

Samaradorlikni oshirish uchun quyidagilarni bajaring¹:

- Pech devorlarining o'lchamiga mos keladigan folgali karton qirqing va ularni devorlarga o'rnatung.
- Butun qopqoq o'lchamiga mos yangi nur qaytargich o'rnatung (24-rasm).
- Yassi metalldan, masalan, alyuminiydan taglik yasang. Uni qora rangga bo'yang va unchalik katta bo'limgan karton bo'laklari yordamida uni pechning tubidan bir oz ko'taring.

Qo'llanilishi

Bunday pechlarda ovqat pishirishning ikki usuli mavjud.

Agar har 25-30 daqiqada quyosh pechini quyoshning harakatlanishiga qarab burib turilsa, ovqatning pishish vaqtini va usuli mikroto'lqinli pech yoki odatdag'i plitadagidek bo'ladi.

Shu bilan birga quyosh pechidan ovqatni sekin tayyorlashda foydalanish mumkin. Masalan, ertalab hamma mahsulotlarni tayyorlab, ularni quyosh pechiga solib, pechni taxminan quyosh tushadigan joyga joylashtirishingiz mumkin. Tushlik vaqtida uyga qaytib kelganingizda, sizning mazali va foydali tushligingiz tayyor bo'ladi. Agar Siz ishda ushlaniib qolsangiz ham, xavotir olishning xojati yo'q, chunki quyosh pechi ancha vaqtgacha ovqatni iliq va yangi holda saqlaydi.

Quyosh pechining harorati unga ovqat solingenan idish joylashtirilganda keskin pasayadi.

Tayyorlash vaqtining ko'proq qismida 100° C dan past bo'lishi mumkin. Shu bilan birga ko'pchilik

¹ https://solarcooking.fandom.com/wiki/Minimum_Solar_Box_Cooker

sabzavotlar va bo'tqalarni pishirishda qaynash harorati 100°C kerak bo'lmaydi ham².

Ovqat tayyorlash uchun idishlar

Quyosh plitalari uchun eng yaxshi idishlar – odatda yupqa metalldan tayyorlangan qopqoqli kastryullardir. Yorug'likni yutmasdan uni qaytaradigan yuzasi polirovka qilingan xumchalardan foydalanmaslik kerak. Shuningdek, ayniqsa, to'q rangli oziq-ovqat mahsulotlar pishirilsa, shaffof kastryullar ham to'g'ri keladi. Kastryullarning qopqog'i esa ham to'q rangli, ham shaffof bo'lishi mumkin.

Kastryul tayyorlangan material ham uning tezroq izishi va issiqlikni qanchalik yaxshi saqlashiga ta'sir qiladi:

- Yupqa materialdan tayyorlangan idish qalin materialdan tayyorlanganiga ko'ra tezroq qiziydi.
- Metall idishlar keramik yoki fayans idishlarga qaraganda tezroq qiziydi.
- Cho'yan avval sekin qiziydi, biroq ancha yupqa metallarga ko'ra issiqlikni yaxshi saqlaydi. Cho'yan idishlarni oldin plitada qizdirib olish lozim.

Keramik tovalar va yupqa materiallli alyuminiy kastryullardan foydalanish zanglamaydigan po'latdan tayyorlangan idishlarga nisbatan ovqatning pishish vaqtini sezilarli qisqartiradi.

Kastryullar uchun qopqoqni o'z qo'lingiz bilan tayyorlastingiz ham mumkin. Buning uchun kastryul yassi metal parchasi ustiga to'ntariladi va uning konturi chizib olinadi⁴. Metallni chiziqdandan 6 mm kengroq qilib qirqing. Qopqoqning chetidagi o'tkir qirrani bir oz arralang yoki silliqlang. Buni qirqilgan joyni tosh bilan ishqalab amalga oshirish mumkin. Ombir bilan uning chekkalarini chiziq bo'ylab pastga qaytaring. Zarurat bo'lganda, uning chekkalari bir-birini yopishi uchun qopqoqning chekkasidan chiziqqacha kesiklar qilib chiqing. Qopqoqning tashqi tomonini qoraytiring va undan ovqat pishirishda foydalanishdan oldin bir necha soat davomida qizdiring.

Vaqtingchalik qopqoqlar ham xuddi shu usul bilan jigarrang qog'oz paketdan foydalangan holda va qog'ozni chiziq bo'ylab buklash orqali tayyorlanadi. Ularni ham foydalanishdan oldin bir necha soat davomida qizdirish kerak.

Maslahatlar

Bunday plitalarda ovqat tayyorlayotganingizda uning qopqog'ini ochmang. Uni faqat ichkarida to'planib qolgan bug'ni chiqarib yuborish uchun oching. Qopqoqning ochilishi plitada to'plangan issiqlikning yo'qotilishiga olib keladi. Bu ovqatni pishish vaqtining uzayishiga olib kelishi mumkin.

Siz qutiga umumiylissiqlik to'planishini oshirish uchun qora tosh joylashtirishingiz ham mumkin.

Shisha kosaga ichiga suv quyilgan yoki guruch solingenan qora idish qo'yish mumkin. Shisha kosa issiqlikni yaxshi ushlab turadi. Shamol ko'p bo'lganda, idish unchalik tez sovimaydi.

Issiqlik yo'qotilishining oldini olishda ba'zan idish toblab pishirishda ishlataladigan paket yoki plastik folgaga o'rab qo'yiladi. Biroq, odatda quyosh plitasida pishirilgan ovqatni folgaga o'rash tavsiya etilmaydi, chunki yaltiroq folga quyosh nuri va issiqlikni qaytarib ovqatni izolyasiyalaydi.

Yaxshi yoritilganlik sharoitida ovqatning pishish vaqtini qisqaradi va aksincha.

Atrofdagi havoning baland harorati ovqatning pishish vaqtini qisqaradi va aksincha.



24-rasm. Pechning umumiy ko'rinishi³

² <https://www.diagram.com.ua/list/alter-energy/alter-energy162.shtml>

³ <https://www.knau.org/earth-notes/2011-12-28/earth-notes-honoring-the-sun-iv-using-solar-ovens>

⁴ https://solarcooking-fandom-com.translate.goog/wiki/Solar_cooking_pots?x_tr_sl=en&x_tr_tl=ru&x_tr_hl=ru&x_tr_pto=nui

Bir marta pishirishda ovqatning unchalik katta bo'limgan miqdori ovqatning pishish vaqtini qisqaradi va aksincha. Qutining tashqarisidan issiqlik ko'priklarini hosil qiluvchi metall qismlarni mahkamlash mumkin emas. Quyosh pechida ovqat pishirishga qancha vaqt talab etilishini turli omillar: quyosh pechinining konstruksiyasi (tuzilishi), ovqat pishirish uchun idish tayyorlangan materiallari, ob havo, ovqat turi, atrof-muhit harorati va boshqalar belgilab beradi.

Ko'p holatlarda sizning pechingiz faqat ovqatni sekin pishirishga mo'ljallangan bo'ladi. Quyosh pechida ovqat pishirishda quyidagiladan qo'llanma sifatida foydalanishingiz mumkin.

Quyosh pechida quyidagi taomlar va bo'tqalarni pishirish mumkin:

ARPA, MAKKAJO'XORI, TARIQ, SULI, GURURCH, BUG'DOY: 2 soat.

Odatdagi miqdordagi suvdan boshlang. Keyingi safar o'zingizning ta'bingizga moslang. Agar quyosh zaif nur sochayotgan bo'lsa, ehtimol, sizning omadingiz chopgan bo'lishi mumkin, agar siz suv va donni alohida isitadigan bo'lsangiz, xuddi makaronni isitgandek yo'l tutasiz. Agar don juda sekin (devzira guruch), yoki tez yumshasa (tariq) bu ayniqsa foydali bo'ladi.

YANGI YASHIL SABZAVOTLAR: 1-1,5 soat. Agar ular uzoq pishirilsa, ajoyib ta'mga ega bo'ladi, biroq o'zining chiroyli yashil rangini yo'qotadi.

QURITILGAN DUKKAKDOSHLAR: 3-5 soat. Odatdagi miqdorda suv solinadi, oldindan ivitib qo'yish ham mumkin.

LAVLAGI, SABZI, KARTOSHKA VA BOSHQA ILDIZMEVALAR: 3 soat.

KARAM, BAQLAJON: 1-1/2 soat. Agar kesilsa, baqlajon kesilgan olma kabi jigarrang tusga kiradi, lekin ta'mi yaxshi bo'ladi.

SO'TALI MAKKAJO'XORI: 1-1/2 soat. To'g'ri tushadigan quyosh nuri ostiga qo'yilsa makkajo'xorining ichi bir oz oqaradi. Po'stlog'i namlikni tutib turadi va tabiiy holda uning yadrosini himoya qiladi. Quyosh nurini yutishiga yordam berish va pishish vaqtini qisqartirish uchun makkajo'xori so'tasiga toza qora paypoq kiydirib qo'yish mumkin.

TUXUM – suv qo'shmang. Og'ir sariqlik uchun 2 soat. Agar uzoqroq pishirilsa, tuxum oqsili jigarrang tusga kiradi, biroq mazasi o'zgarmaydi.

GO'SHT - suv qo'shmang. Agar uzoq vaqt pishirilsa, u ancha mayin bo'lib qoladi.

BALIQ: 1-2 soat; JO'JA: 2 soat - maydalangani, 3 soat - butunligicha;

MOL GO'SHTI, CHO'CHQA GO'SHTI va h.k.: 2 soat – maydalangani, 3-5 soat – katta bo'laklar; KURKA katta, butun: kun davomida.

MAKARAONLAR, VERMISHEL – bir kastryulda suvni isiting va boshqa kastryulga ozgina o'simlik yog'i bilan quruq pasta soling va suv qaynash darajasiga borgunga qadar isiting. Issiq pastani issiq suvga qo'shing, aralashtiring va yana 10 daqiqa pishiring.

YONG'OQLARNI QOVURISH – qobiqsiz pishiriladi. Bodom: 1 soat, eryong'oq: 2 soat.

YOPIB PISHIRILADIGAN TAOMLAR – eng yaxshi variant – kunning o'rtaida pishirish (10-14 soat).

Non: butun donli - 3 soat; Tortlar: 1-1/2 soat;

Pishiriqlar: 1-1/2 soat va ustidan o'rab qo'yish talab etilmaydi.

Yopib pishirilganda xamir hamma tomonidan bir tekis qizarishi uchun kastryulni har 15-20 daqiqada 45° ga burib turish kerak.

Quyosh nuri yaxshi tushib turganda non v pirogning (26 sm diametrli) pishish vaqtini taxminan bir soatni tashkil etadi. Pishiriqlarni yarim soatda pishirish mumkin. Kruassanlar bir yarim soatdan kamroq vaqt davomida pishadi.

Tog'li joylarda ovqat pishirish

Balandlik oshib borishi bilan suvning qaynash harorati pasayib boradi. Masalan, 2000 metr balandlikda suvning qaynash harorati aigi 95 °C ni tashkil etadi va bu ovqat pishirishni sekinlashtiradi. Bu ta'sir tufayli, masalan, quritilgan dukkakdoshlarni yuqori balandlikda pishirish qiyin bo'ladi. Siz ovqatni qoraytirilgan oddiy qopqoqli konservalash uchun ishlataladigan bankalarda ham pishirib ko'rishingiz mumkin. Rezinali mahkamlagich ortiqcha bosimni chiqarib yuborish imkonini beradi, biroq bari-bir ham unchalik katta bo'limgan bosim saqlanib qoladi va pishish jarayonini tezlashtiradi. Konservalashda ishlataladigan standart bankalar va qopqoqlar tavsiya etiladi, chunki ular yuqori bosimga mo'ljallangan.

QUYOSH SUV ISITGICHLARI

O'zbekistonning geografik va iqlimi joylashuvi, mamlakat hududida quyosh energiyasining katta salohiyati mavjudligining sababidir.


Quyosh kollektori o'z egasiga atrof-muhitga zararli ta'sir ko'satmasdan (karbonat angidrid, oltingugurt dioksidi, karbon monoxide, azot oksidi va boshqalarni kamaytirish) pulni tejash imkonini beradi.

Texnologianing tavsifi

Eng oddiy suyuqlik tizimlarida oddiy suv ishlataladi, u to'g'ridan-to'g'ri kollektorda isitiladi va hammomga, oshxonaga va hokazolarga uzatiladi. Ushbu model "ochiq" (yoki "to'g'ridan-to'g'ri") tizim sifatida tanilgan.

Tizim, suv, kollektor tomonidan to'plangan issiqlikni yutib, issiqlik almashtirgichdan o'tgan tizim (bu odatda uyda o'rnatilgan suv idishi), "yopiq tizim" ("bilvosita") deb ataladi (25-rasm).

Suyuqlik kollektorlarida quyosh energiyasi, yutuvchi plastinkaga mahkamlangan trubkalarda oqayotgan suyuqlikni qizdiradi. Plastinka tomonidan yutilgan issiqlik darhol suyuqlikka uzatiladi (26-rasm).



25-rasm. "Yopiq tizimning" sxemasi¹

26-rasm. Kollektor ishlash tamoyili

Quvurlar bir-biriga parallel joylashishi mumkin, ularning har biri kirish va chiqish teshiklariga ega yoki serpentin shaklida bo'lishi mumkin. Quvurlarning serpentin joylashuvi, ulanish teshiklari orqali tomchilab oqish ehtimolini yo'q qiladi va suyuqlikning bir tekis oqishini ta'minlaydi.

